

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING IMKONIYATLARI VA XAVF-XATARLARI

Abdushukurova Sevinch Akramjonovna

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17020570>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, uning imkoniyatlari va dolzarb qiyinchiliklari tahlil qilingan.

Asosan ikki masalaga – kiberxavfsizlik va raqamli tengsizlikka alohida e'tibor qaratilgan.

Muammo va qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari yoritilib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada raqamli iqtisodiyotning milliy taraqqiyotdagi o'rni, jamiyat va biznes uchun yaratadigan imkoniyatlari hamda xavf-xatarlarining iqtisodiy oqibatlarini keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, raqamli transformatsiya, kiberxavfsizlik, raqamli tengsizlik, infratuzilma, axborot xavfsizligi.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qoldi. Elektron to'lovlar, onlayn xizmatlar va elektron tijorat sohalarining kengayishi aholiga qulaylik yaratmoqda, tadbirkorlarga esa yangi imkoniyatlar ochmoqda. 2020-yilda tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi orqali davlat boshqaruvi va biznes jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilandi.¹

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy munosabatlar tizimida raqamli texnologiyalardan keng foydalanishga asoslangan yangi rivojlanish bosqichidir. Unga elektron tijorat, internet-bank, elektron hukumat, blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli xizmatlar va boshqa ko'plab yo'nalishlar kiradi.²

Raqamli iqtisodiyotning eng muhim jihatlari – tezkorlik, shaffoflik va resurslardan oqilona foydalanishdir. Masalan, davlat xizmatlari onlayn ko'rinishda taqdim etilishi odamlarning vaqtini tejaydi, elektron to'lov tizimlari esa iqtisodiy jarayonlarning xavfsiz va tez amalga oshishiga yordam beradi. Shu bilan birga, biznesning global bozorga chiqishi uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Bu jarayonlar natijasida iqtisodiyotni boshqarish uslubi, biznes yuritish modeli va hatto kundalik hayot tarzi ham tubdan o'zgaradi.³

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" konsepsiyasida davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish belgilangan.⁴

O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda raqamli iqtisodiyot faol rivojlantirilmoqda:

- Davlat xizmatlari – "my.gov.uz" portali orqali aholiga ko'plab xizmatlar onlayn ko'rinishda taqdim etilmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

² Ayupov R.X., Boltaboeva G.R. "Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

³ Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. "Raqamli iqtisodiyot va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri". – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020.

• Bank-moliya tizimi – elektron to‘lovlar, mobil banking va onlayn kreditlash tizimlari kengaymoqda.

• Tadbirkorlik va biznes – elektron tijorat platformalari, “marketplace” tizimlari va onlayn marketing vositalari jadal rivojlanmoqda.⁵

• Ta’lim – onlayn ta’lim platformalari, masofaviy kurslar va raqamli kutubxonalar tashkil qilinmoqda.⁶

O‘zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida sezilarli natijalarga erishib kelmoqda. Ammo bu jarayon tabiiy ravishda o‘ziga xos qiyinchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda.

Ularni to‘g‘ri baholash va yechimini topish kelajakdagi muvaffaqiyat garovi sanaladi.

Birinchi navbatda, kiberxavfsizlik masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Davlat xizmatlari, bank tizimi, elektron tijorat kabi sohalarida axborot oqimlari tobora ortib bormoqda. Bu esa shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, firibgarliklarning oldini olish va tizimlarni tashqi xakerlik hujumlaridan saqlashni talab qiladi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun axborot xavfsizligi doimiy ravishda yangilanib boradigan tizimga aylanishi kerak. Shu ma’noda, O‘zbekistonda ham maxsus markazlar tashkil etilishi, mutaxassislar tayyorlanishi va xalqaro hamkorlik kengaytirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi katta masala – raqamli tengsizlik. Raqamli imkoniyatlar mamlakatning turli hududlarida bir xil darajada ta’minlanmagan. Masalan, yirik shaharlarda tezkor internet va raqamli xizmatlardan foydalanish qulay, lekin chekka hududlarda bu imkoniyatlar hanz cheklangan. Shuningdek, ayrim ijtimoiy guruhlar — qariyalar yoki kam ta’minlangan oilalar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyati pastligicha qolmoqda. Bu esa jamiyat ichida “raqamli bo‘linish”ni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli infratuzilmani kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlari dolzarb bo‘lib bormoqda.

Xulosa

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti milliy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar ochmoqda. Raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshirib, aholining kundalik hayotini yengillashtirmoqda. Ammo bu jarayon kiberxavfsizlik va raqamli tengsizlik kabi muammolar bilan ham bog‘liq. Shu sababli davlat va jamiyat hamkorlikda infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va axborot xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha ishlarni davom ettirishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Ayupov R.X., Boltaboeva G.R. “Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Ergashev R.X., Xamrayeva S.N. “Raqamli iqtisodiyot va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
4. Mulaydinov F., Rajabboyev B. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va moliya tizimi”. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.
5. Turayeva G., va boshqalar. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimi va innovatsiyalar”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

⁵ Mulaydinov F., Rajabboyev B. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va moliya tizimi”. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.

⁶ Turayeva G., va boshqalar. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida ta’lim tizimi va innovatsiyalar”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
7. Xolmo‘minov J., Rustamov A. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.
8. Boshqarov A. *Axborot xavfsizligi va kiberxavf-xatarlar iqtisodiyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari – www.stat.uz